

AUTIZM SINDROMI VA UNING TURLARI

Irodaxon Erkinboy-qizi Abdulazizova
abdulazizovairoda784@gmail.com
Namangan davlat pedagogika instituti

Annotatsiya: Ushbu maqolada autism spektridagi bolalarni inklyuziv ta'limda qo'llab-quvvatlash, inklyuziv ta'lim haqida qisqa ma'lumotlar, ulani sog'lom tengdoshlari bilan bilim olishlari, jamyatimizning bu sohaga e'tiborlari haqida keltirib o'tilgan. Bu ta'lim jamyatimizga naqadar zarur va muhim ekanligi haqida keltirilgan.

Kalit so'zlar: inklyuziv, ASB, autism, spektor

Hozirgi kunda zamonaviy va yangilanib borayotgan O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimining asosiy maqsadlaridan biri - har bir bolaga teng ta'lim imkoniyatini yaratish va har bir bola sifatli ta'lim olishini ta'minlashdan iborat hisoblanadi. Ya'ni inklyuziv ta'lim muhim ahamiyat kasb etmoqda. Inklyuziv ta'lim - bu sog'lom va alohida ta'lim ehtiyojiga ega bo'lgan bolalarning birgalikda umumiy ta'lim muassasalarida o'qishini tashkil etuvchi tizimdir. Ushbu tizim turli nuqsonga ega bolalarning jamiyatga moslashuvi va rivojlanishida katta rol o'ynaydi. Prezidentimiz bu sohaga katta e'tibor bermoqdalar. Inklyuziv sinflar ochishda maktabdagi sharoitlarni, ya'ni tashqi va ichki maxsus zinalar, xonalar, metodikalar, ko'rgazmalar, texnika, texnologiyalar, bolani tibbiy xizmatlari, bu kabi bolalar uchun kadrlar va boshqa bu soha uchun nimaiki kerak bo'lsa barcha sharoitlarni yaratib bermoqdalar.

Autizm spektridagi bolalar o'ziga xos fikrlash, muloqot qilish, his tuyg'u xususiyatlariga ega bo'ladilar. Ularning imkoniyatlarini to'g'ri rivojlantirish uchun maxsus pedagogik yondashuv, sabr, ota-onalarning qo'llab quvvatlashi talab etiladi. Inklyuziv ta'lim vazifasi esa bu kabi bolarni o'z tengdoshlari bilan sog'lom bilim, ta'lim-tarbiya olishlarini ta'minlashdan iboratdir.

Autizm spektr buzilishi (ASB) - bu nevrologik rivojlanish bilan bog'liq holatdir. Shuni ta'kidlash kerakki, autizm kasallik emas. Bu bolaning dunyoni boshqacha qabul qilishi va o'ziga xos rivojlanishi hisoblanadi. Ko'plab autizmli bolalar matematika, san'at, texnologiya yoki musiqa va boshqa turli hil fanlardan va turli kasblardan, mehnat faolyatidan yuqori qobiliyatga ega bo'lishi mumkin.

Autizm spektridagi bolalar oddiy maktab muhitida o'qiganda ular- ijtimoiy muhitga moslashadilar, o'z tengdoshlari bilan ta'lim oladilar, ta'lim olishida tengdoshlari bilan ta'lim olishida ustozlari bilan ya'ni qo'shimcha yordam bilan ta'lim oladilar, tengdoshlari bilan muloqot qilishni o'rganadilar, mustaqil bo'lib ijtimoiy muhitga kirishishga harakat qiladilar. Bu kabi holatlarda bolalarda o'ziga bo'lgan ishonchi ortadi. Bu holatda boshqa o'quvchilarda ham bag'rikenglik, mehr-shafqat va yordam ko'rsatish kabi insoniy fazilatlarni o'rganadilar. Bu esa jamiyatda ijobiy muhit shakllanishiga yordam beradi. Nuqsonli bolalarga yordam va qo'llab-quvvatlab, ularni ham o'zlari bilan rivojlanishiga ko'maklashadilar.

Inklyuziv ta'limda o'qituvchi asosiy shaxslardan biri hisoblanadi. Pedagog bolaning psixologik holatini tushunishi, uni individual holatidan kelib chiqib, bola bilan o'quv faolyatini tashkil etishi lozim. Sabrli bo'lishi lozim.

Autizm tug'ma rivojlanish xususiyati hisoblanadi. U bolaning tarbiyasi yoki ota-onaning xatosi sababli yuzaga kelmaydi. Odatda autizm belgilari 2-3 yoshgacha sezila boshlaydi.

Autizmning kelib chiqish sabablari quyidagilardan iborat.

Hozirgi ilmiy tadqiqotlarga ko‘ra autizmning aniq bitta sababi yo‘q. Olimlar bir nechta omillar ta‘sir qilishi mumkinligini ta‘kidlaydilar. Ya‘ni

1. Genetik omillar

Autizm ko‘pincha irsiy xususiyat bilan bog‘liq bo‘ladi. Oilada autizmli inson bo‘lsa va boshqa bolalarda ham uchrash ehtimoli yuqoriroq bo‘ladi.

2. Nevrologik rivojlanishdagi o‘zgarishlar

Bola miyasi rivojlanishidagi ayrim farqlar kuzatiladi. Axborotni qayta ishlash, sezgi organlari faoliyati, ijtimoiy signallarni tushunishda farqlar kuzatiladi.

3. Homiladorlik davridagi omillar - Ba‘zi hollarda: kuchli infeksiyalar; ekologik omillar; homiladorlikdagi asoratlar ham ta‘sir qilishi mumkin.

Lekin vaksinalar autizmga sabab bo‘ladi degan fikr hali ilmiy jihatdan tasdiqlanmagan. Autizm belgilari har bir bolada turlicha namoyon bo‘ladi. Ayrimlarda yengil, boshqalarda esa kuchli bo‘lishi mumkin.

Ijtimoiy muloqotdagi belgilar: Ko‘zga tik qarashdan qochish, ismiga javob bermaslik, o‘zini olib qochish, tengdoshlari bilan o‘ynashga qiziqmaslik holatlari, muloqotga kirishmaslik, hissiyotlarni tushunishda qiynchilik, yolg‘iz qolishni afzal ko‘rish.

Nutq va kommunikatsiya belgilarida esa quyidagilar kuzatiladi: Nutqning kech rivojlanishi, gaplarni takrorlash (ekholaliya), mimika va imo-ishoralarni kam ishlatish yoki umuman foydalanmaslik, savollarga noodatiy javob berish holatlari.

Xulq-atvor belgilaridan esa - Bir xil harakatlarni qayta-qayta bajarish, o‘ziniki bo‘lgan o‘yinchilarni doimo olib yurish, qo‘l silkitish yoki aylanish, kundalik tartib o‘zgarsa bezovtalanish, yig‘lash, inchijqlik holatlari kuzatiladi, ma‘lum predmetlarga haddan tashqari qiziqib qolishi.

Autizmli bolalarda: baland tovushdan qo‘rqish; yorug‘likka sezuvchanlik; ayrim hid yoki ta‘mlarni yoqtirmaslik kuzatiladi.

Masalan, oddiy shovqin ham ularga juda kuchli ta‘sir qilishi mumkin. Shovqin joylarda ham ba‘zi turlari yoqtirmaydi. Bu kabi muhitdan ketadi yoki quloqlarini yopib oladi.

Autizmning turlari haqida kengroq

1. Klassik autism. Bu holatda: nutq rivojlanishi sust bo‘ladi; ijtimoiy muloqot qiynlashadi; takroriy xatti-harakatlar kuchli kuzatiladi. Bunday bolalar ko‘pincha yordam va maxsus pedagogik yondashuvga ehtiyoj sezadilar.

2. Asperger sindromi. Bu autizmning yengil shakli hisoblanadi. Bunday bolalar: yaxshi gapira oladi; aqliy rivojlanishi normal yoki yuqori bo‘ladi; lekin odamlar bilan muloqot qilishda qiynaladi. Ular biror sohaga juda chuqur qiziqish bildirishi mumkin.

3. Rett sindromi. Asosan qizlarda uchraydi. Dastlab bola normal rivojlanadi, keyin: nutq yo‘qoladi; harakat buziladi; qo‘l harakati o‘zgaradi. Bu genetik kasallik hisoblanadi.

4. Atipik autism. Autizmning ayrim belgilariga ega bo‘lsa-da, to‘liq klassik autism mezonlariga mos kelmaydi.

Autizm darajalari

Yengil daraja - Mustaqil hayotga qisman moslashadilar. Muloqotda kichik qiynchiliklar bo‘ladi.

O‘rta daraja - Kundalik faoliyatda yordam talab qiladi. Muloqot ancha qiynlashgan bo‘ladi.

Og‘ir daraja - Nutq juda cheklangan bo‘ladi. Doimiy yordam zarur hisoblanadi.

Autizmni aniqlashda uchun: bolalar nevrologi, psixolog, psixiatr, logoped-defektolog tekshiruv olib boradilar.

Diagnostika usullari- birinchi navbatda bolaning xulqini kuzatish kerak bo‘ladi. Bolaning ota-onalar bilan suhbat o‘tkazildi. Maxsus testlar o‘tkaziladi. Rivojlanish darajasini baholash. Erta tashxis juda muhim hisoblanadi. Chunki erta yordam bolaning rivojlanish imkoniyatini oshiradi.

Autizmni davolash mumkinmi?

Autizm to‘liq “davolanadigan” kasallik emas. Lekin-maxsus ta‘lim, terapiya, logopedik mashg‘ulotlar, psixologik yordam, nevropatolog yordami orqali bolaning ko‘nikmalarini sezilarli rivojlantirish mumkin. Autizimli bolalar bilan ishlash usullarida-ABA terapiyaning samarasi katta hisoblanadi. Xulq-atvorni shakllantirish va foydali ko‘nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi. Autizm tug‘ma rivojlanish xususiyati hisoblanadi. U bolaning tarbiyasi yoki ota-onaning xatosi sababli yuzaga kelmaydi. Odatda autizm belgilari 2-3 yoshgacha sezila boshlaydi.

Autizm - bolaning dunyoni, jamiyatni, hayotni o‘ziga xos tarzda qabul qilishi bilan bog‘liq rivojlanish holatidir. Har bir autizimli bola individual yondashuvga muhtoj. Erta tashxis, maxsus ta‘lim va ota-onalarning qo‘llab-quvvatlash orqali ularning hayot sifatini yaxshilash mumkin. Inklyuziv ta‘lim va jamiyatning ijobiy ta‘siri autizimli bolalarning o‘z qobiliyatlarini namoyon etishiga katta yordam beradi. Autizm spektridagi bolalarni inklyuziv ta‘limga jalb qilish ularning kelajakda mustaqil hayot kechirishi, o‘z o‘rnini topishi va jamiyatning faol a‘zosiga aylanishida katta ahamiyatga ega hisoblanadi. Har bir bola ta‘lim olish huquqiga egadirlar, jamiyat ularning imkoniyatlarini rivojlantirish uchun sharoit yaratib bermoqda. Inklyuziv ta‘lim nafaqat autizimli bolalar, balki butun jamiyat va boshqa tashxisli bolalar uchun ham foydalidir. Chunki bunday tizim insonparvarlik, tenglik va o‘zaro hurmat, bir-birini qo‘llab-quvvatlash, yordam berish tamoyillarini rivojlantiradi. To‘g‘ri yondashuv, mehr va sabr orqali autizm spektridagi bolalar ham o‘z salohiyatini, o‘zining noyob qobiliyatlarini namoyon qila oladilar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 12-oktabrdagi 638-son qaroriga 1-ILOVA “Umumiy o‘rta ta‘lim tashkilotlarida inklyuziv ta‘limni tashkil etish tartibi to‘g‘risida “NIZOM
2. The Complete Guide to Asperger's Syndrome — autizm spektr buzilishlari haqida batafsil ma‘lumot beradi.
3. UNESCOning inklyuziv ta‘lim bo‘yicha materiallari.
4. Sadirdinovna, V. M., & Orifjanovna, O. D. (2025, December). AUTIZM SINDROMLI BOLALARDA NUTQ VA MULOQOT KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHNING KORREKSION-PEDAGOGIK TIZIMI. In UNIVERSAL INSIGHTS CONFERENCE ON SCIENCE AND SOCIETY (Vol. 1, No. 1, pp. 198-206).
5. BOTIROVA, S. (2025). NUTQ MADANIYATI VA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING UYG‘UNLIGI: TARIX FANI O‘QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR. «ACTA NUUZ», 1(1.2), 82-84.
6. Botirova, S. Developing Speech Skills Of School Students In Teaching History Of Uzbekistan. European Scholar Journal, 4(12), 62-64.
7. Azamovna, R. G., & Munira, V. (2022). Case Stade and TECHNOLOGY of Using Non-standard Tests in the Development of Educational and Creative Activities. JournalNX, 8(12), 277-282.
8. Turg‘unpo‘latova, D., & Voxobova, M. (2025). Inklyuziv ta‘limda logopedik yordamning o‘rni. Science and Education, 6(5), 350-355.
9. Munira, V. (2025). Alaliya nutq nuqsonli bolalar bilan olib boriladigan turli metodlar. Science and Education, 6(2), 283-288.

10. Munira, V. (2025). ALALIA IMPROVISATIONAL METHODS OF PREPARATION FOR WORK ON SPEECH IMPAIRMENT. In International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences (pp. 93-97).

11. Vaxobova, M. (2024). O'smirlarning ota-onalari bilan munosabatlaridagi muammolar. Журнал Педагогике и психологии в современном образовании, 4, 53-57.

12. Munira, V., & Shoxistaxon, T. (2024). Bolalar nutqining rivojlanishida atrof muhit va oilaning ahamiyati. Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi, 15(1), 51-69.